QISHLOQ XO‘JALIGIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH METODLARI VA SAMARALI TA‘MINOT ZANJIRI MODEL.....	1037
Olimova Bahora Shuxratovna	
INNOVASION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI.....	1042
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI BARQARORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA FOIZ SIYOSATI VA UNING AMALIY JIHATLARI.....	1047
Axmedova Dilafro‘z Elshodovna	
B2BDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR.....	1053
Abdubotirova Madinaxon	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИННОВАЦИОННО - ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ.....	1059
Баходирова Хилола Баходировна	
RAQOBATBARDOSH MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANISH.....	1063
Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Abdurazakova Diyora	
ENERGIYA XARAJATLARINI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY SAMARASI.....	1070
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF REMOTE BANKING SERVICES IN THE CONTEXT OF BANKING TRANSFORMATION	1075
Jabborov Bahriddin Rashidovich	
MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY-XO‘JALIK FAOLIYATINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH TARTIBI.....	1079
G‘ofurov Iskandar Abduraxmonovich	
BANKLARNING INVESTITSIYA RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	1084
Yuldashev Erkin Xusanovich	
MA’LUMOTLAR BAZASINING RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAGI AHAMIYATI.....	1090
Maxamadiyev M. M.	
УСТОЙЧИВОСТЬ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ: АНАЛИЗ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ АКИБ «ИПОТЕКА-БАНК» ПОСЛЕ ВХОЖДЕНИЯ В ОТП GROUP.....	1095
Каримова Нуржахон Олим кизи	
O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM MUASSASALARIGA XORIJLIK TALABALARNI JALB ETISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1101
Sharopova Nafosat, Xolmamatov Diyorbek	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O‘RNI	1108
Kasimova Zilola G‘ulomiddin qizi	
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUASSASALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	1116
Toshmurodov Abdurauf Ravshanovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ТОПЛИВНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА УЗБЕКИСТАНА – 2025.....	1122
Ш.К.Жалилов	
“O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI”	1126
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1130
Xusanov Durbek Nishanovich	
TURIZM XIZMATLARI TUSHUNCHASI VA ULARNI INNOVATSION TASHKIL ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI.....	1138
Najmidinov Azizbek Bahrom o‘g‘li	



MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA TURISTIK INFRATUZILMANI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI.....	1143
Xalmirzayev Axmadjan Axunovich, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
O'ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	1149
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li	
MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1156
Akramov Toxir Abdiraxmanovich	
SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1161
Adashev Azimjon Urinboyevich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1165
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	
INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHDA BOSHQARUV HISOBİ AXBOROTINING AHAMIYATI	1170
Xushvaqtova Nozanin Nurbek qizi	
OLIY TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYA JARAYONLARINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI VA ULARNING TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDAGI AHAMIYATI.....	1177
Ismoilova Feruza Kubaymurodovna	
EKOMARKETING STRATEGIYALARI ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH	1182
Qo'ziyev Jaloladdin Alisher o'g'li	
ENSURING INNOVATIVE ECONOMIC SECURITY IN THE KHOREZM REGION: WASTE RECYCLING AND CIRCULAR ECONOMY	1186
Madraximova Shohista Bahrom qizi	
KICHIK BIZNES FAOLIYATINI BAHOLASH ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1191
Mavrulov Ravshan Nematjonovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA ISLİM MOLIYASINI JORIY QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJIRIBASIDAN FOYDALANISH.....	1195
Sultonov Baxtiyor Baxodirovich	



O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA ISLOM MOLIYASINI JORIY QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISH



Sultonov Baxtiyor Baxodirovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
To'rtko'l fakulteti, Kafedra mudiri

Email: b.sultonov@tsue.uz

ORCID: 0009-0000-2479-9716

Annotatsiya. Ushbu maqolada islomiy moliya sohasida ilg'or natijalarga erishgan Fransiya, Pokiston, Bahrayn va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlar tajribasi tahlil qilinadi. Mazkur davlatlarda islomiy moliya institutlarining shakllanishi, huquqiy-me'yoriy asoslari, amaliy mexanizmlari hamda ularning iqtisodiyotga ko'rsatgan ijobiy va salbiy ta'sirlari yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston iqtisodiyotiga islomiy moliyani joriy etish imkoniyatlari, mavjud muammolar va istiqbolli yo'nalishlar aniqlanadi hamda amaliy xulosa va takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: islom iqtisodiyoti, islom moliyasi, xorijiy tajriba, islom bank ishi, shariat, shariat ulamolari, huquqiy asoslar, xalqaro islom tashkilotlari, foiz, foyda va zarar taqsimoti, kadrlar tayyorlash, huquqshunos.

Abstract. This article examines the experience of countries such as France, Pakistan, Bahrain, and the United Kingdom, which have achieved advanced results in the field of Islamic finance. The study analyzes the formation of Islamic financial institutions, their legal and regulatory frameworks, operational mechanisms, as well as the positive and negative impacts of Islamic finance on national economies. Based on the findings, conclusions and practical recommendations are proposed for the introduction and development of Islamic finance in the economy of Uzbekistan.

Key words: Islamic economics, Islamic finance, foreign experience, Islamic banking, Sharia, Sharia scholars, legal framework, international Islamic organizations, interest, profit and loss sharing, human resource development, legal expert.

Аннотация. В статье анализируется опыт таких стран, как Франция, Пакистан, Бахрейн и Великобритания, добившихся значительных результатов в сфере исламских финансов. Рассматриваются процессы формирования институтов исламских финансов, их нормативно-правовая база, практические механизмы функционирования, а также положительные и отрицательные последствия их внедрения в национальные экономики. На основе проведенного анализа формулируются выводы и предложения по внедрению исламских финансов в экономику Республики Узбекистан.

Ключевые слова: исламская экономика, исламские финансы, зарубежный опыт, исламское банковское дело, шариат, улемы шариата, правовые основы, международные исламские организации, процент, распределение прибыли и убытков, подготовка кадров, юрист.



KIRISH

Zamonaviy islomiy moliya 1950-1960-yillarda shakllangan bo'lib, dastlab mintaqaviy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan kichik kooperativ bank xizmatlari bilan bog'liq edi.

Jahon islomiy moliya sanoatining o'sish dinamikasi kelgusi yillarda ham yuksalish tendensiyasini saqlab qolishini ko'rsatmoqda. Xususan, Refinitiv tomonidan 2021-yilda e'lon qilingan Islom moliyasini rivojlantirish bo'yicha so'nggi hisobotga ko'ra, ixtiyoridagi jami aktivlar hajmi (Assets under Management – AuM) 2019-yildagi 2,96 trillion AQSh dollaridan 2020-yilda 3,37 trillion AQSh dollarigacha oshgan bo'lib, 2025-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 4,94 trillion AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda [6].

O'zbekiston fuqarolarining 95 foizdan ortig'i islom diniga e'tiqod qiladi [7]. Jahon miqyosida islom iqtisodiyoti ko'lamining kengayib borishi va uning hajmi jadal sur'atlarda o'sayotganini inobatga olgan holda, ushbu sohani O'zbekiston iqtisodiyotiga joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida: "Shuningdek, mamlakatimizda islomiy moliyaviy xizmatlarni joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqti-soati keldi. Bunga Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi", – deya ta'kidlab o'tganlar [11].

Mazkur jarayonni samarali amalga oshirish uchun quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish lozim:

- xorijiy mamlakatlarda islom iqtisodiyotining rivojlanish tarixini o'rganish;
- dunyo bo'ylab islom iqtisodiyotini joriy etgan davlatlar tajribasini tahlil qilish;
- mazkur tajribalarda erishilgan yutuqlardan foydalanish hamda yo'l qo'yilgan xatolarning O'zbekiston amaliyotida takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida xulosa va amaliy takliflar ishlab chiqish.

Shu nuqtai nazardan, Langtonning [1] Fransiyada islom moliyasiga bo'lgan qiziqish sabablari hamda mamlakatda shariat qoidalarini chuqur biladigan mutaxassislarni jalb etgan holda shariat kengashlarini tashkil etish zarurligi haqidagi tavsiyalari tahlil qilingan. Shuningdek, Khan [2] Pokistonda islomiy moliya tizimini joriy etish jarayonida hukumat tomonidan har bir davlat organining aniq vazifa va vakolatlari belgilab berilgani hamda maxsus qo'mitalar tashkil etilgani haqida ma'lumot beradi. M. Kabir Hassan [4] esa ushbu qo'mitalarni tuzish va ularning samarali faoliyat yuritishida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlarni yoritib bergan. Bahraynda islom banklarining rivojlanish bosqichlari Thea Vinnicombe [5] tomonidan o'z ilmiy ishlarida batafsil tahlil qilingan. Islom iqtisodiyotining nazariy asoslari, tarixi hamda uning hozirgi kunda ayrim davlatlar (Eron, Pokiston, Sudan, Turkiya, Ozarbayjon va Rossiya) amaliyotida qo'llanilish xususiyatlari rossiyalik olim Renat Bekkin [8] tomonidan keng yoritilgan va muallif tomonidan tegishli xulosa hamda takliflar ilgari surilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot PRISMA standarti, ilmiy manbalar bilan ishlash, tizimli ko'rib chiqish jarayoni hamda ma'lumotlarni olish va tahlil qilish usullariga tayangan holda amalga oshirildi. Tizimli sharhlar va meta-tahlillar uchun afzal qilingan hisobot elementlari (Preferred Reporting Items for Systematic Reviews and Meta-Analyses – PRISMA) ilmiy mualliflarga tizimli sharhlar va meta-tahlillarning keng doirasini yuqori sifatda taqdim etishda yordam berishga qaratilgan asoslantirilgan minimal elementlar majmuasidir. Ushbu standart mualliflar e'tiborini mazkur turdagi tadqiqotlarda shaffoflikni ta'minlash, metodologik aniqlikni oshirish va to'liq hamda ishonchli xulosalarga erishish usullariga qaratadi.

Joriy tadqiqotda PRISMA yondashuvi tadqiqotchiga o'rganilayotgan mavzu bo'yicha ilmiy ishlarning sifati va batafsilligini baholash uchun zarur bo'lgan bevosita va muhim ma'lumotlarni tizimli ravishda to'plashda metodologik qo'llanma vazifasini bajardi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Fransiyaning islomiy moliyaga bo'lgan qiziqishi uchta asosiy omil bilan izohlanadi. Birinchidan, pragmatik yondashuv. Jahon moliyaviy inqirozi likvidlikka bo'lgan yuqori ehtiyojni yuzaga keltirdi, holbuki Yaqin Sharq mintaqasida katta hajmdagi likvid resurslar mavjud. Ikkinchi omil islom moliyasi asosida yotuvchi tamoyillar bilan bog'liq bo'lib, ularning uzoq muddatli istiqboldagi jozibadorligida namoyon bo'ladi. Xususan, oddiylik, uzoq muddatli moliyalashtirish va moliyalashtirishning ishtirokchi xususiyati, ya'ni moliyalovchining faqat vaqt omili orqali emas, balki o'z investitsiyalaridan hosil bo'ladigan pul oqimlari xavfini ham baham ko'rgan holda daromad olishi tadbirkorlik ruhini aks ettiradi. Uchinchi omil esa moliyaviy bozorlarni spekulyativ "kazino" sifatida emas, balki real iqtisodiyot va moddiy boyliklarni moliyalashtirish vositasi sifatida ko'rish g'oyasidir. Ushbu jihatlari banklararo yoki an'anaviy obligatsiyalar bozorida yuz beradigan holatlardan qat'i nazar, muhim ahamiyat kasb etadi [1].



Yana bir muhim voqea sifatida Parijdagi EUROPLACE moliyaviy bozorlar tashkiloti bilan Bahraynda joylashgan Islom moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti (AAOIFI) o'rtasida imzolangan anglashuv memorandumini qayd etish lozim. 2010-yil iyul holatiga ko'ra, AAOIFI tomonidan ishlab chiqilgan 20 ta standart arab tilidan fransuz tiliga tarjima qilingan bo'lib, bu fransuz moliya mutaxassislariga islomiy moliya masalalarini chuqur va aniq tushunish imkonini berdi. Mudoraba, mushoraka va ularga oid tushunchalar haqida nazariy munozaralar olib borish muhim bo'lsa-da, undan ham muhimrog'i – umumqabul qilingan standart shakllarning mavjudligidir. Chunki ingliz tilidagi tarjimalardan foydalanish ayrim hollarda, masalan, Ispaniya yoki Fransiya huquq tizimida mavjud bo'lmagan "trast" kabi ingliz huquqiga xos tushunchalar sababli noto'g'ri talqinlarga olib kelishi mumkin. Hali amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar ko'p bo'lsa-da, dastlab e'tibor aynan ushbu 20 ta asosiy standartga qaratildi.

Shuningdek, Qatar Islom banki (QIB) va Fransiyaning yirik jamg'arma banki BPCE o'rtasida imzolangan yana bir anglashuv memorandumini mavjud bo'lib, u Fransiya islomiy chakana bank tizimini yaratishga zamin yaratishi mumkin. Mazkur tashabbusga Fransiya katta qiziqish bildirilmoqda. Chunki mamlakatdagi kichik va o'rta biznes subyektlari kapital qo'yilmalarga muhtoj bo'lib, ularning aksariyati halol faoliyat yuritadi. Shu bois ushbu hamkorlik "g'alaba-g'alaba" (win-win) modeli sifatida baholanmoqda. Bundan tashqari, bu tashabbus Fors ko'rfazi mamlakatlari investorlarini xususiy sarmoya sanoatining ishlash mexanizmlari, kompaniyalarni tanlash va direktorlar kengashlarida ishtirok etish jarayonlari bilan tanishtirish imkonini ham beradi. Bu nafaqat moliyaviy resurslarni jalb etish, balki investorlarni o'qitish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Fransiya amalga oshirilgan islohotlarni kuzatish muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, islomiy moliyaviy mahsulotlar yoki shariatga muvofiq moliyalashtirishni joriy etishni rejalashtirayotgan banklar va kompaniyalar oldida bir qator muhim savollar mavjud. Huquqshunoslar uchun asosiy muammo nafaqat tartibga solish darajasida, balki institutsional aniqlik masalasida ham namoyon bo'ladi. Banklar o'z mahsulotlarini tekshirish maqsadida shariat kengashlarini tashkil etishlari lozim bo'ladi, bu esa ular uchun mutlaqo yangi tajribadir. Kompaniyalar esa o'z loyihalarini moliyalashtirishni ma'qullash uchun shariat ulamolari bilan shartnomalar tuzishlari talab etiladi. Shu bilan birga, shariat huquqi va mahalliy (masalan, Fransiya yoki Ispaniya) qonunchiligini birdek yaxshi biladigan mutaxassislarni topish ancha murakkab masala hisoblanadi.

Huquqiy jihatdan eng muhim savollardan biri shundan iboratki, shariatga muvofiq moliyaviy mahsulotlar davlat qonunlari bilan bir qatorda fatvolar orqali tartibga solinadimi yoki ular to'liq islomiy tamoyillar asosida boshqariladimi. Londonda ko'rib chiqilgan mashhur Shamil Bank of Bahrain v. Beximco ishi ushbu masalada muhim precedentsifatida e'tirof etiladi. Garchi shartnomada islom tamoyillariga ishora qilingan bo'lsa-da, London Apellyatsiya sudi ingliz huquqiga asoslangan kelishuvni ustuvor deb topdi. Sud islom tamoyillari yetarlicha aniq belgilanmaganligi va turli fiqh maktablari yondashuvlari aks etganini ta'kidladi. Shu asosda Fransiya Islom moliyasi qo'mitasi maxsus ishchi guruh tuzib, davlat qonunchiligi ustuvor bo'lishi kerak degan xulosaga keldi. Bunda shariat kengashlari tomonidan beriladigan fatvolar, xuddi islomiy moliya reyting agentliklarining sotishdan oldingi xulosalari kabi, maslahat xarakteriga ega bo'lishi lozimligi belgilandi [1, 108-bet].

Pokiston tajribasiga to'xtaladigan bo'lsak, 1980-yillarning boshlarida mamlakat hukumati bank va moliya sektorini islomiy yo'nalishda isloh qilish bo'yicha keng qamrovli loyiha boshladi. Ushbu vazifa Moliya vazirligiga yuklatildi va keyinchalik vazirlik Pokiston Davlat bankiga (State Bank of Pakistan – SBP) 1980-yilda Islom mafkurasi kengashi (Council of Islamic Ideology – CII) tomonidan tayyorlangan hisobot asosida islomiy bank va moliya tizimini rivojlantirish bo'yicha zarur choralarni ko'rishni tavsiya etdi. Shuningdek, Moliya vazirligi huzurida faoliyat yurituvchi Pokiston Bank kengashi (Pakistan Banking Council – PBC) mamlakatda islom bank ishi va moliyasining huquqiy hamda institutsional asoslarini shakllantirish uchun mas'ul etib belgilandi [2, 106-bet].

Pokiston Davlat banki 1981-yil yanvar oyidan boshlab mamlakat bo'ylab faoliyat yurituvchi bank muassasalariga 7 mingdan ortiq filiallarda foyda va zararni taqsimlash asosida ishlovchi shaxobchalarni ochish bo'yicha ko'rsatma berdi. Shuningdek, banklarga o'z foyda va zararlarni taqsimlash jamg'armalarini hukumatning tovar operatsiyalari, ulush sertifikatlari yoki Milliy Investitsiya Trusti (NIT) kabi foizdan xoli aktivlarga yo'naltirish tavsiya etildi.

O'rganilgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ayrim davlatlarda islomiy moliya joriy etilishidan avval amalda bo'lgan qonunchilik normalari islomiy moliya standartlariga mos kelmagan va bu jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqargan. Ayniqsa, sudlar yoki mutaxassislar tomonidan masalalar ko'rib chiqilganda, amaldagi davlat qonunchiligi ustuvor hisoblanishi umumiy xulosa sifatida shakllangan.

Bundan tashqari, islomiy moliya institutlari uchun AAOIFI tomonidan ishlab chiqilgan standartlarning har bir mamlakatda, xususan Fransiya va Rossiya tajribasida bo'lgani kabi, milliy tillarga to'liq tarjima qilinmagani ham muhim muammolardan biri sifatida qayd etiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, jahon islomiy moliya sanoati hajmi 2024-yilda 4,5 trillion AQSh dollaridan oshgan bo'lib, 2027-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 6,7 trillion AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda [1]. Quydagi jadvallar xorijiy mamlakatlarning islomiy moliyani joriy etish tajribasini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.



1-jadval. Xorijiy mamlakatlarning islom moliyasini joriy etishning qiyosiy tahlili

Ko'rsatkich	Malayziya	Saudiya Arabistoni	BAA	Indoneziya	Turkiya	Buyuk Britaniya
Islom moliyasi joriy etilgan yil	1983	1975	1975	1991	1985	2004
Islom bankchilik bozor ulushi (2024)	45,6%	74,9%	22,7%	7,72%	8,5%	0,1%
Jami islom bank aktivlari (mlrd \$)	~320	~850	~296	~62	~65	~11,4
Islom banklari soni	16+	12+	20+	13	6	5
Jahon islom moliyasidagi ulushi	~12%	~25-30%	~10%	~2%	~3,5%	<1%
Yillik o'sish sur'ati (2023-2024)	7,7%	13,5%	11,1%	9,88%	~15%	38%
Musulmon aholisi (%)	~64%	~97%	~76%	~87%	~98%	~6,5%
Asosiy tartibga solish bazasi	Islom moliya xizmatlari to'g'risidagi qonun (IFSA 2013)	SAMA (Markaziy bank) tartibga solish qoidalari	BAA MBning islom bankchilik qoidalari	OJK shariatga mos bankchilik qoidalari	BDDK ishtirok bankchiligi doirasi	FCA islom moliyasi ko'rsatmalari
Muvaffaqiyat omillari	Ikki tomonlama bank tizimi, kuchli tartibga solish, shariatga muvofiqlik boshqaruvi	Hukumat mandati, neft boyligi, majburiy muvofiqlik	Oliy Shariat Kengashi, xalqaro markaz strategiyasi	Banklar birlashuvi (BSI), raqamli transformatsiya	Davlat ishtirok banklari, KO'K moliyalash	Soliq neytraligi, sukuk uchun ingliz huquqi
Asosiy moliyaviy vositalar	Sukuk, Murobaha, Takaful, Mudaraba	Sukuk, Murobaha, Ijora, Takaful	Sukuk, Murobaha, Ijora, Yashil sukuk	Sukuk, Murobaha, Mudaraba, Mushoraka	Sukuk, Murobaha, Ishtirok omonatlari	Sukuk, Murobaha, Uy sotib olish rejalari

1-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, islomiy moliyani joriy etishda eng muvaffaqiyatli mamlakatlar qatoriga Saudiya Arabistoni (74,9% bozor ulushi), Malayziya (45,6%) va Birlashgan Arab Amirliklari (22,7%) kiradi [2]. Ushbu mamlakatlar tajribasi islomiy moliyaning rivojlanishi bevosita davlat siyosati va tartibga solish muhiti bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi. Jumladan, Saudiya Arabistonida islom bankchiligi majburiy shariatga muvofiqlik talablari asosida yuqori darajada rivojlangan bo'lsa, Malayziyada ikki tomonlama bank tizimi – ya'ni an'anaviy va islomiy banklar parallel ravishda faoliyat yuritadigan model muvaffaqiyatli joriy etilgan [3]. Diqqatga sazovor jihati shundaki, Buyuk Britaniya kabi musulmon aholisi nisbatan kam (6,5%) bo'lgan mamlakatlarda ham islomiy moliya muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Bu holat soliq neytralligini ta'minlash va qulay huquqiy muhit yaratish orqali erishilgan [4].

O'sish sur'atlari tahlili Buyuk Britaniya (38%), Turkiya (taxminan 15%) va Saudiya Arabistoni (13,5%) islomiy moliya bozorida eng yuqori o'sish ko'rsatkichlariga ega ekanini ko'rsatadi [5]. Ushbu mamlakatlar islomiy moliyani milliy iqtisodiy strategiyalariga integratsiya qilish bo'yicha izchil va faol siyosat olib bormoqda. Jumladan, Saudiya Arabistonining "Vision 2030" dasturi, BAAning 2031-yilga kelib islom bank aktivlarini 2,56 trillion dirhamga yetkazish maqsadi, shuningdek, Malayziyaning 2030-yilga borib islomiy moliya bozorida 50 foizlik ulushga erishish rejasi strategik yondashuvning yaqqol namunalari hisoblanadi.

Islomiy moliya rivojlanishining keyingi bosqichida shariat ilmlari hamda zamonaviy iqtisodiyot va moliya sohalarini chuqur biladigan integratsiyalashgan bilimga ega mutaxassislar zarurati keskin ortmoqda. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, shariat va moliya sohalarini birdek mukammal biladigan ulamolar soni yetarli emas. Ushbu muammoni hal etish uchun tizimli va uzoq muddatli kadrlar tayyorlash siyosatini amalga oshirish talab etiladi.



[4, 348-bet]. Bu borada xodimlar uchun islomiy moliya tamoyillariga oid maxsus o'quv dasturlari va treninglarni tashkil etish bo'yicha Ispaniya va Bahrayn tajribasini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarida Islom taraqqiyot banki tomonidan a'zo bo'lmagan davlatlardagi musulmon jamoalarini qo'llab-quvvatlash dasturi doirasida amalga oshirilgan grant loyihalari mamlakatdagi ilk islomiy moliyaviy bitimlar sifatida e'tirof etiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 27-avgustdagi 371-son qaroriga muvofiq Islom taraqqiyot bankiga, 2004-yil 21-dekabrda 596-son qaroriga asosan esa Xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha Islom korporatsiyasiga a'zo bo'lingan. 2004-yildan boshlab mamlakatda islomiy moliyalashtirish asosida ayrim loyihalar amalga oshirila boshlagan bo'lib, ular asosan energetika va sog'liqni saqlash kabi ijtimoiy ahamiyatga ega sohalarda ijara va murobaha shartnomalari orqali moliyalashtirilgan.

Bugungi kungacha O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlari, jumladan banklar, sug'urta va audit tashkilotlari, yuridik shaxslar hamda aholi ishtirokida to'laqonli islomiy moliya bozori shakllanmagan. Hozirgi vaqtda Xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha Islom korporatsiyasining 100 foizlik sho'ba korxonasi bo'lgan "TAIBA FINANCE" MChJ xorijiy korxonasi 2011-yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda. Mazkur kompaniya bugungi kunga qadar umumiy qiymati 36 mln AQSh dollari ekvivalentidagi 250 dan ortiq loyihani moliyalashtirgan bo'lib, islom tamoyillari asosida lizing xizmatlarini ko'rsatuvchi yagona tashkilot hisoblanadi.

2023-yilda oliy ta'lim muassasalariga qabul parametrlariga muvofiq, islomiy moliyaga oid bakalavriat yo'nalishlariga jami 45 nafar, magistratura mutaxassisliklariga esa 20 nafar talaba qabul qilinishi belgilangan. Biroq ushbu ko'rsatkich O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan 200 dan ortiq kredit tashkilotlari (tijorat banklari, mikromoliya tashkilotlari va lombardlar), sug'urta kompaniyalari, lizing tashkilotlari hamda qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli emas.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, tijorat banklari bevosita ishlab chiqarish, savdo, sug'urta faoliyati bilan shug'ullanishi, yuridik shaxslarni tashkil etishi yoki ularning ustav kapitalidagi ulushlarni sotib olishi huquqiga ega emas. Ushbu cheklovlar islomiy moliyaning asosiy tamoyillaridan bo'lgan foyda va zarar taqsimotiga asoslangan operatsiyalarni to'liq amalga oshirishda eng katta to'siqlardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, islomiy moliyalashtirishni rivojlantirishda soliq qonunchiligini ham moslashtirish zarur. Jumladan, islomiy moliya institutlarining foyda va zararini aniqlash, ularni soliqqa tortish mexanizmlari, shuningdek, vaqf jamg'armalarini soliqqa tortish tartiblari hali ishlab chiqilmagan. Islomiy moliya mahsulotlari, instrumentlari va operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha aniq me'yoriy hujjatlarning mavjud emasligi moliyaviy tashkilotlar va aholi o'rtasida noaniqliklar hamda nizolarning ko'payishiga olib kelishi mumkin.

Eng muhim va kechiktirib bo'lmaydigan masalalardan biri sifatida Islom moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti (AAOIFI) tomonidan ishlab chiqilgan standartlarni o'zbek tiliga tarjima qilish, shuningdek, islomiy moliya tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi tashkilotlar va aholi moliyaviy savodxonligini oshirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, xorijiy mamlakatlar tajribasini hisobga olgan holda O'zbekiston iqtisodiyotiga islomiy moliyani joriy etish bo'yicha xulosa va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Xususan, birinchi navbatda, O'zbekiston iqtisodiyotiga islomiy moliyani joriy etish masalalarini muvofiqlashtiruvchi maxsus hukumat komissiyasini tashkil etish lozim. Mazkur komissiya xalqaro Shariat standartlari hamda Islom moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti (AAOIFI) tomonidan ishlab chiqilgan standartlarni o'zbek tiliga tarjima qilish va ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqishi zarur. Bu orqali islomiy moliyaning asosiy tushunchalari, tamoyillari va operatsiyalarini amalga oshirish mexanizmlari keng jamoatchilik va mutaxassislar uchun tushunarli bo'ladi. Albatta, ushbu jarayon uzoq vaqt va katta moliyaviy resurslarni talab etadi hamda moliyachilar, bankirlar, islom ulamolari, huquqshunoslar kabi turli soha vakillarini keng jalb etishni taqozo etadi.

Ikkinchidan, xalqaro ekspertlar ishtirokida islomiy moliyalash uchun maxsus qonunlar, shuningdek, islomiy moliya mahsulotlari, instrumentlari va operatsiyalarini amalga oshirish tartib-tamoyillarini belgilovchi alohida me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish zarur. Yangi qonunchilik normalari banklarga islomiy moliya tamoyillariga muvofiq ravishda bevosita ishlab chiqarish, savdo va sug'urta faoliyatida ishtirok etish, yuridik shaxslarni tashkil etish hamda ularning ustav kapitalidagi ulushlarga egalik qilish imkoniyatlarini ham qamrab olishi lozim. Shu bilan birga, soliq qonunchiligini ham moslashtirish talab etiladi, ya'ni islomiy moliya institutlari faoliyatidan olinadigan foyda yoki zararlarni aniqlash va soliqqa tortishning o'ziga xos mexanizmlarini belgilash zarur. Chunki islomiy moliyada amaldagi buxgalteriya hisobida qo'llaniladigan asosiy qarz va foizlarni ajratish usulini qo'llash imkoni mavjud emas.

Uchinchidan, islomiy moliya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini ikki yo'nalishda jadallashtirish maqsadga muvofiqdir. Bir tomondan, mahalliy oliy ta'lim muassasalarida islomiy moliyaga oid ta'lim yo'nalishlari va qabul



kvotalarini kengaytirish, ikkinchi tomondan esa mutaxassislarning ushbu sohada ilg'or tajribaga ega bo'lgan xorijiy davlatlarda malaka oshirishini tizimli ravishda tashkil etish zarur. Chunki yuqori malakali kadrlarni shakllantirish qisqa muddatda amalga oshiriladigan jarayon emasligi bilan ajralib turadi va uzoq muddatli strategik yondashuvni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Langton J., Trullols C., & Turkistani A. (2011). Islamic economics and finance: A European perspective. Palgrave Macmillan. <https://doi.org/10.1057/9780230361133>
2. Khan M., & Bhatti M. (2008). Developments in Islamic banking: The case of Pakistan. Palgrave Macmillan. <https://doi.org/10.1057/9780230582309>
3. Hassan A., & Mollah S. (2018). Islamic finance: Ethical underpinnings, products, and institutions. Springer. <https://doi.org/10.1007/978-3-319-91295-0>
4. Hassan M. K., & Lewis M. K. (2014). Handbook on Islam and economic life. Edward Elgar Publishing.
5. Vinnicombe, T. (2012). A study of compliance with AAOIFI accounting standards by Islamic banks in Bahrain. Journal of Islamic Accounting and Business Research, 3(2), 77-98. <https://doi.org/10.1108/17590811211265902>
6. Islamic Finance News. (2022). IFN annual guide 2022. <https://www.islamicfinancenews.com/supplements/ifn-annual-guide-2022>
7. Religions of Uzbekistan. (n.d.). Islam in Uzbekistan. <https://religions.uz/pages/view?id=86>
8. Bekkin, R. I. (2010). Islamskaya ekonomicheskaya model' i sovremennost' [Islamic economic model and modernity] (2nd ed.). Izdatel'skiy dom Mardzhani.
9. Central Bank of Bahrain. (n.d.). Banking supervision. <https://www.cbb.gov.bh/banking/>
10. Baydaulet E.A. (2019). Islomiy moliya asoslari. O'zbekiston Milliy Nashriyoti.
11. President of the Republic of Uzbekistan. (2020). Address to the Oliy Majlis. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>